

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

KN3808860010

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **PUDRAT ShARTNOMASI**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Qorovulbozor tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 10.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qorovulbozor  
tumani yuridik  
markazi  
yuriskonsulti:**



**K.M.AXMEDOV**

10.10.2022

# PUDRAT SHARTNOMASI № 94

12.10.2022 йил

Qorovulbozor tuman tibbiyot birlashmasi(keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi) nomidan nizom asosida harakat qiluvchi A O`rinov bir tomondan va JAYRON PLYUS MCHJ(keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladi) nomidan nizom asosida harakat qiluvchi YU. Kamolov ikkinchi tomondan, quyidagilar to‘g‘risida mazkur shartnomani tuzdilar:

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o‘z tavakkalchiligiga asoslangan va o‘zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig‘iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: **Qorovulbozor tuman tibbiyot birlashmasida joriy tamirlash**, Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to‘lash majburiyatini oladi.

## 2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma bahosi **323 000 000 (Uch yuz yigirma uch million)** so‘mni tashkil etadi.

2.2. Shartnoma bahosi o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

2.3. Shartnomaning 2.1- bandida ko‘rsatilgan baho dastlabki bo‘lib, so‘nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bahosi inflyatsiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog‘liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

## 3. TO‘LOV SHARTLARI

3.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha to‘lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: pul ko‘chirish yo‘li bilan

3.2. To‘lov shakli: bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan

3.3. Shartnoma bo‘yicha so‘nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so‘ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

## 4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni ishlarning kalendar rejasida belgilangan muddatlarda bajaradi (1-ilova).

4.2. Shartnomaning amal qilish muddati:

Boshlanishi 2022 yil 12 oktyabr

Tugashi – 2022\_yil 30 oktyabr

## 5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Pudratchining majburiyatlari:

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish; loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish; o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish; ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish; qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash; qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash; qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish dalolatnomasi imzolanganidan keyin 30 kunlik muddatda qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

5.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish; shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida

nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektни qabul qilib olish.

## 6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallanganidan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

6.4. Neustoykani to'lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

## 7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmamas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmaz kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmaz kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo'lmaz kuch holatlari uzluksiz \_\_oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma tarafdardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

## 8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo- sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

## 9. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

### Pudratchi:

Jayron Plyus MCHJ  
Qorovulbozor tuman Tinchlik MFY  
Tel 94 127 77 44  
H/R 20208000105357019001  
MFO 00111  
STIR\_308201090  
Turon bank Buxoro filiali



Yu.Kamolov

### Buyurtmachi:

Qorovulbozor tuman Tibbiyot birlashmasi  
B.Nakshband ko'chasi  
Tel 65 364 14 41  
SHXV 100022860062327073101054001  
STIR 201057326  
Qorovulbozor G'aznachilik bo'limi  
H/R 23402000300100001010  
MFO 00014  
STIR 201122919



A.O'rinov